
BARCHAMIZNING BAYRAMIMIZ

Tuman hokimining tabrigi **BARCHAMIZNING BAYRAMIMIZ** 11 noyabr – Kasaba uyushmalari kuni. Ushbu sana 2020 yil 23 noyabrdagi O'RQ-648-son Qonun bilan belgilandi. Kasaba uyushmasi – fuqarolarning mehnat faoliyati yoki o'qish turi bo'yicha umumiy manfaatlar bog'lab turadigan ixtiyoriy jamoatchilik birlashmasidir. Kasaba uyushmalari maqsadi – o'z a'zolarining mehnat hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini yoqlab chiqish va himoya qilishdir. O'zbekiston kasaba uyushmalari kunining belgilanishi, eng avvalo, kasaba uyushmalari tashkilotlarini ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, tashkilot fidoyi xodimlarini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bu bilan mehnatkashlar huquqlari himoya qilinishi ustidan jamoatchilik nazorati ta'sirchanligini oshiradi. Kasaba uyushmalari kuni siz, biz, barchamizning bayramimiz. Bayramingiz qutlug' bo'lsin, yurtdoshlar!

Sufhonjon Soliev, Rishton tumani hokimi.

2022-11-11 08:28:58